

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.04.2021.PED.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

PRIMBETOV QALIBAY TLEPBERGENOVICH

**QORAQALPOG‘ISTONDAGI MADANIY MEROSLAR VOSITASIDA
TALABA - YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UDK:316.7:36:18:37.0.

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Primbetov Qalibay Tlepbergenovich

Qoraqalpog'istondagi madaniy meroslar vositasida talaba - yoshlarni ma'naviy-
axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi..... 5

Примбетов Қалыбай Тлепбергенович

Технология совершенствования духовно-нравственного воспитания
студентов и молодежи средствами культурного наследия Каракалпакстана .23

Primbetov Kalybay Tlepbergenovich

Technology for improving the spiritual and moral education of students and youth
by means of the cultural heritage of Karakalpakstan..... 44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.04.2021.PED.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

PRIMBETOV QALIBAY TLEPBERGENOVICH

**QORAQALPOG‘ISTONDAGI MADANIY MEROSLAR VOSITASIDA
TALABA - YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Ped2487 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida Qoraqalpog‘iston filiali bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tilegenov Askarbay Tolegenovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Matchanov Sapo Muradovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Alauatdinov Saxabatdin Iniyatdinovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning “___” _____ 2023 yil soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; ye-mail: www.cspi.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

U. N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., dotsent

F. T. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

V.B.Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasi barcha sohalarida sifatli o‘shni ta‘minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Jahon tsivilizatsiyasining axborot texnologiyalari va bilimlarga asoslangan jamiyat rivojlanishining yangi bosqichiga o'tish sharoitida ta'lim har bir davlatning rivojlanishi uchun eng muhim omilga aylanmoqda. Madaniy merosni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, ta'lim, davlatlar va xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv amalga oshiriladigan millatning ma'naviy boyligi bilan taqqoslash mumkin. Bu 2003 yilda qabul qilingan YuNESKOning “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida”gi Konventsiyasida ham qayd etilgan bo'lib, madaniy merosni asrab-abaylash va ularni targ'ib qilish zarurligini ko'rsatadi¹.

Dunyoda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy-madaniy meroslardan foydalanishning modernizatsion didaktik tizimini ishlab chiqish, tarixiy-madaniy meros vositasida talabalarda milliy identiklikni tarkib toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, milliy-madaniy meroslar vositasida o'quvchilarda milliy g'ururni tarbiyalashning aksiopedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, talabalarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda moddiy merosning tarbiyaviy imkoniyatlarini integratsiyalashning samarali yo'llarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonlarini axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning tarixiy-madaniy merosni qulay va oson o'zlashtirishlari uchun mediavositalar asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish alohida dolzarblilik kasb etadi.

Tarixiy-madaniy milliy merosni aktuallashtirishning zamonaviy usullari ko'p jihatdan uning madaniy siyosat va zamonaviy sharoitda jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq. “2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi”da ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari, shuningdek jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtaiy nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish² vazifalari belgilab qo'yildi. Shuningdek, so'nngi yillarda mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirish, birinchi navbatda investitsiyalarni faol jalb qilish, sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har

¹ Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тўғрисидаги Конвенция. 2003 йил 17 октябрда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг ЮНЕСКО Бош конференцияси томонидан қабул қилинган.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича тараққиёт Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2021й.

tomonlama foydalanish hisobiga rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida», 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 30 sentyabrdagi PQ-4467-son «Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalda bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan Ya.G'ulomov, M.Imomnazarov, M.Kaxxarova, M-Sh.Qdirniyazov, A.Muminov, A.Mavrulov, O'.Mavlonov, Q.Nazarov, A.Ochildiev, S.Otamurotov, N.T.Tuxliev, T.Abdullaeva, A. Taksanov, M.Q.Pardaev, R.Atabaev, G'. H. Qudratov, I.S.Tuxliev, X.M.Mamatqulov, M.E.Po'latov, Q.J.Mirzaev, Sh.A.Sultonov, E.Shavqiev, A.Bektemirov, A.N.Norchaev, O,H.Hamidov, B.X.To'raev, B.Sh.Safarov, N.E.Ibadullaev, M.T.Alimova, D.Z.Noqulova, M.T.Alieva, K.X.Abduraxmonov, I.S.Tuxliev, Z.I.Usmanova, A.K.Alimov, M.R.Boltaboev, E.Yusupovlar tarixiy-madaniy merosning falsafiy, arxeologik va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini, O.Musurmanova, U.Aleuov, P.Abdimuratov, R.Mamatqulova, U.Mahkamova, G.Maxmutova, T.Utebaev, N.Egamberdieva, B.Bekniyazovlar kabi olimlar tarixiy-madaniy meros vositasida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini, O.Davlatov, Z.Salieva, B.Xodjaevlar o'quvchilarning tarixiy tafakkurini tarkib toptirish, talabalarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, axborot xavfsizligi kompetentligini shakllantirishda tarixiy-madaniy merosdan foydalanish yo'llari tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan professor S.P.Tolstov, B.C.Kuzin, Ye.M.Kryuchkov, N.A.Kushaev, M.M.Mammaev B.M.Nemenskiy, M.A.Nekrasova, I.M.Radjabov kabilar arxitektura yodgorliklarning tarbiyaviy ahamiyati, turistik joylarga sayohat qilish orqali

talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xorijlik olimlardan N.Alsayyad, B.Dicks, H.François, F.Hartog, R.Harrison, Dj.Jokilehto, S.Labadi, A.Swenson, G.Sonkoly, T.Vahtikari kabilar tomonidan tarixiy-madaniy merosning insoniyat madaniyatidagi o'rni va roli, madaniyatlarning transformatsiyasi masalalari o'rganilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarni ma'naviy madaniyatini rivojlantirish muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash sharoitida talabalarning ma'naviy madaniyatini milliy-madaniy meros vositasida rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali ish rejasining A1-XT-0-92997 "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar o'yg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston arxitektura yodgorliklari va milliy madaniy meroslar orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

milliy-madaniy meroslar va arxitektura yodgorliklari vositasida talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashga doir pedagogik imkoniyatlarini yoritib berish;

talabalarda milliy -madaniy meroslar vositasida ma'naviy axloqiy tarbiyalash modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash;

talabalarni milliy madaniy meroslar vositasida ma'naviy axloqiy tarbiyalash uchun pedagogik shart-sharoitlar kompleksini aniqlash va eksperimental tarzda tekshirish;

talabalarning darsdan tashqari mashg'ulotlari jarayonida milliy-madaniy meros vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Qoraqalpog'istondagi madaniy meroslar vositasida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyalari olingan.

Tadqiqot predmeti arxitekturalik va madaniy meros ob'ektlari orqali talabalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning pedagogik mazmuni, shakl, uslub va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, tajriba-sinov, test, anketa, qiyosiy tahlil, bahs-munozara, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash va tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy madaniy meros va arxitektura yodgorliklari vositasida talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari tarbiyaning pedagogik va uslubiy jihatlarini takomillashtirishning konstruktiv mexanizmlarini vitagen

ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda milliy madaniy meros ob'ektlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash modeli samaradorlikka erishishning pragmatik usullarini milliy ta'lim identifikatsiyasini rivojlantirish bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy mezonlar orqali ta'lim va tarbiya sifatini kvalimetrik baholash tizimini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarni milliy madaniy meroslar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik shartsharoitlar kompleksi ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar aspektida unifikatsiyalash va amaliyot va nazariya uyg'unligini ta'minlash mexanizmlarini dilektik aloqadorlik nuqtai nazaridan optimallashtirish asosida ishlab chiqilgan;

talabalarining darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalashning pedagogik texnologiyalari aksiologik yondashuv tamoyillarini tarbiya resurslarini tashkil etishning integral tizimlariga talabalarining rivojlanish vektoriga nisbatan deterministik omil sifatida moslashtirish asosida ishlab chiqilgan/

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy-madaniy meroslar va arxitektura yodgorliklari vositasida talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashga doir pedagogik imkoniyatlar aniqlashtirilgan;

talabalarda milliy-madaniy meroslar vositasida ma'naviy axloqiy tarbiyalash modeli ishlab chiqilgan uning samaradorligini baholash mezonlari ko'rsatilgan;

talabalarni milliy madaniy meroslar vositasida ma'naviy axloqiy tarbiyalash uchun pedagogik shart-sharoitlar kompleksi aniqlangan va ular eksperimental tarzda tekshiruvdan o'tkazilgan;

talabalarining darsdan tashqari mashg'ulotlari jarayonida milliy-madaniy meros vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning yo'llari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy madaniy meroslar vositasida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosini hal qilishga yo'naltirilgan konseptual-metodologik yondashuv va samarali pedagogik mexanizmlar belgilab berilganligi, madaniy meroslardan foydalanishga oid nazariy-fundamental tushunchalar ko'rib chiqilgan va aniqlanganligi, milliy madaniy meroslar orqali talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning asosiy mezonlari ishlab chiqilganligi, o'rganilayotgan muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tamoyillar, omillar, ijtimoiy-madaniy va psixologik-pedagogik shart-sharoitlar aniqlab berilganligi va talabalarni ma'naviy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik model ishlab chiqilganligi bilan belgiladadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan pedagogik qoidalar, amaliy natijalar, tavsiyalardan pedagog olimlar o'zlarining metodik va ilmiy ishlarida, milliy madaniy meroslar vositasida talabalarni ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga oid tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda, talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, akademik guruh rahbarlarining tarbiyaviy ishlari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'istondagi madaniy meroslar vositasida talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari hamda ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida:

tarbiyaning pedagogik va uslubiy jihatlarini takomillashtirishning konstruktiv mexanizmlarini vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan milliy madaniy meros va arxitektura yodgorliklari vositasida talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan bajarilgan A1-XT-0-92997 "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" va Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan P3200170915198 raqamli "Qoraqalpog'iston jamiyatidagi ijtimoiy ko'rsatmalar transformatsiyasi: tarix va amaliyot" (2018-2020 yillar) mavzusidagi amaliy loyihalari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 15-noyabrdagi 322-son ma'lumotnomasi; Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 5-avgustdagi 265/1 son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy madaniy meros va arxitektura yodgorliklari vositasida talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari takomillashtirilgan;

samaradorlikka erishishning pragmatik usullarini milliy ta'lim identifikatsiyasini rivojlantirish bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy mezonlar orqali ta'lim va tarbiya sifatini kvalimetrik baholash tizimini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan talabalarda milliy madaniy meros ob'ektlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash modeli bo'yicha xulosa va takliflardan Qoraqalpogiston televideniesining «Meros» ko'rsatuvi ssenariysini yaratishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2023-yil 27-fevraldagi 05-22/117-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni milliy madaniy meroslar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari boyitilgan;

ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar aspektida unifikatsiyalash va amaliyot va nazariya uyg'unligini ta'minlash mexanizmlarini dilektik aloqadorlik nuqtai nazaridan optimallashtirish asosida ishlab chiqilgan talabalarni milliy madaniy meroslar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlar kompleksi bo'yicha taklif va tavsiyalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi

Qoraqalpog‘iston bo‘limi tomonidan «Ma’naviyat va ma’rifat soatlari»ning ma’ruza materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 14-fevraldagi 01-13846-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyalashning pedagogik texnologiyalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta darslik chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti, predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Milliy madaniy meroslar vositasida talabalarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashning nazariy-pedagogik asoslari va ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlari**” deb nomlangan birinchi bobida milliy madaniy meroslarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy-metodologik jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari, talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy tamoyillari, mazmuni va mohiyatidan foydalanishning nazariy tamoyillari va qoidalarining ilmiy tahlili natijalari keltirilgan.

Madaniyatimizning poydevori bo‘lgan milliy-madaniy merosimizni o‘rganish - faqat ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etibgina qolmay, ayni vaqtda buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy xazinadan barhamand bo‘lishda, ijtimoiy-madaniy muammolarni hal qilishda va insonning har tomonlama kamol topishida muhim omil hisoblanadi.

Asrimizning ulug‘ donishmandlaridan biri ta’kidlaganidek “O‘tmishni bilmay turib, hozirgi zamonning chinakam ma’nosini va kelajak davrning maqsadlarini tushunish mumkin emas”. Haqiqatan ham tarix tajribasini o‘rganish - davrimizning murakkab ijtimoiy-madaniy hodisalarini chuqur idrok etish va tushunib yetishga, mustaqilligimiz va ravnaqimizni qadrlashga, porloq istiqlol yo‘lida yangi zo‘r taraqqiyot uchun katta rejalar belgilash va ularni amalga oshirishga da’vat etadi.

Buyuk ikki daryo oralig‘ida O‘rta Osiyoning Misr nomlangan Qoraqalpog‘iston hududi jahon madaniyatining qadimiy markazlaridan biri

hisoblanadi. Mazkur hududda bundan ikki yarim ming yil avval ilm-fan, madaniyat markazlariga aylangan yirik – yirik shaharlarga asos solindi. Ularning Bozor qal’a, Qo‘yqirilgan qal’a, Mizdaxkon, Tuproq qal’a, Oybuyir qal’a, Yonbosh qal’a, Aqchaxan qal’a, Daukesken qal’a, Ayoq qal’a singari bir nechta o‘nlab qal’alar o‘zlarining askariy qo‘rg‘onlar, saroylar, ibodatxonalar va ulardan topilgan ajoyib haykallar, rangli bo‘yoqlar bilan tasvirlangan asarlari, shuningdek, arxiv manbalar bilan allaqachon jahon madaniyatining oltin fondidan joy olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining hurmatli akademigi, taniqli sharqshunos olim, professor S.P.Tolstov akademik Ya.G‘.G‘ulomov bilan birgalikda Janubiy Orol bo‘yi arxeologik yodgorliklarini birinchilardan bo‘lib, ularni faqat tadqiq qilmasdan, ushbu yodgorliklar va ularning merosxo‘rlari qoraqalpoqlar, umumiy xorazmliklarning qadimiy va o‘rta asrlardagi tarixi to‘g‘risida Angliya, Fransiya, Italiya va Hindiston davlatlarining universitetlarida ma‘ruzalar o‘qib, xalqimizni dunyoga tanitdi.

Insoniyat tarixi o‘z ichiga bir nechta yuz ming yillarni qamrab oladi. Qoraqalpog‘iston hududida shu davrlarning deyarli barcha davrlariga tegishli yodgorliklar uchraydi. Ustyurt tekisligida ochilgan Yesen, Shaqpaqli hamda Qoraquduq yodgorliklari yurtimizda insoniyatning bundan bir yuz oltmish ming yildan ortiq davrdan buyon yashab kelganligidan dalolat beradi. Yaqinda Sulton Uvays tog‘ yon bag‘irlaridan topilgan arxeologik topilmalar tirikchilik shu davrlarda faqat Ustyurt tekisligidagina emas, balki yurtimiz chegaralarida qo‘rg‘onlarning, shaharlarning, ibodatxonalarning hamda saroylarning qurilish ishlaridan darak beradi. Janubiy Orol bo‘yi tarixidagi birinchi markazlashgan Xorazm viloyatiga asos solindi. Qadimgi davrlardan Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk ipak yo‘lining yurtimizdan o‘tgan tarmog‘i bo‘ylab o‘rta asrlarda karvon saroylar minoralar va bozorlar qurilgan.

Tadqiqot muammosiga oid manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston tarixi mamlakatimizning barcha qadimiy mintaqalarining tarixi kabi juda boy, rang-barang va qiziqarlidir. Bu zaminni o‘ziga xos arxeologik topilmalar qo‘riqxonasi deyish mumkin. Chunki, bu yerda kishining diqqatini tortadigan, hayratlantiradigan ko‘plab arxeologik va me‘moriy yodgorliklar mavjudki, ular o‘ta noyobligi va maftunkorligi bilan alohida ajralib turadi.

Nemis olimi V.Markvart birinchilardan bo‘lib qadimgi Xorazmning Avestodagi afsonaviy Ayryanem Vafioga, payg‘ambar Zaratushtraning vataniga to‘g‘ri kelganligiga va uning ahamoniylar davrigacha O‘rta Osiyoning siyosiy markazi bo‘lganligi to‘g‘risida fikr yuritgan edi. Keyinchalik V.Markvart fikrlarini V.V.Bartold S.P.Tolstov, Ya.G‘.G‘ulomov, Kissling, M.G.Vorobeva va boshqa da olimlar qo‘llab-quvvatlaydi. Ahamoniylar O‘rta Osiyoni bosib olguniga qadar, ya‘ni miloddan avvalgi eramizgacha VI asrgacha, Xorazmning aksariyat hududlarni birlashtirib turgan siyosiy markaz bo‘lgan. Ahamoniylar yurishidan oldin Sirdaryodan O‘rta Afg‘onistongacha bo‘lgan yerlarni Xorazm ta‘sirida ushlab turgan kuch sifatida gavdalanadi.

Rivojlanishning mana shunday oliy bosqichlari vaqti-vaqti bilan bo‘lib turgan urushlar, ekologik ofatlar natijasida to‘siqqa uchirab, qal’alar bilan qo‘rg‘onlar

buzilib, davlat vayrona bo'lgan. Shunga qaramasdan ota-bobolarimiz barcha ishni yangidan boshlab yuborgan.

Yuqorida keltirilgan hodisalarning barchasi arxeologik yodgorliklarda, ya'ni qadimgi o'troq joylari bilan alohida joylarda, qabristonlarni, tog' konlari bilan ustaxonalarda, ilohiy joylarda, g'orlarda, gidrotexnik qurilishlarda, (qadimgi sug'orish sohalar, plotinalar, ko'priklar, suv o'tkazgichlar) qadimgi suvg'orib ekiladigan joylarda, yo'llar bilan qurilishlarda, chegara sarhadlarida (to'g'onlar, devorlar qoravulxonalar, minoralar, qo'rg'onlar), petrogliflarda (jar toshlardagi rasmlar) o'z aksini topgan va saqlangan. Keltirilgan ushbu tarixiy manbalarning barchasi ilmiy tomondan maxsus o'rganilmagunicha tilsiz meros bo'lib keldi. Mutaxassis arxeolog olimlar tomonidan mana shunday madaniy meroslardagi yozuvlar o'qilib, yodgorliklar qayta tilga kira boshladi. Ularning madaniy qatlamlaridagi maishiy buyumlari, uy jihozlari boshqa topilgan buyumlar yodgorliklarga oid ma'lumotlarni yanada boyitadi.

Qadim zamonlardan paydo bo'lgan mana shunday ajoyib ijod mahsullari dunyo olimlarining, adabiyotshunoslarning, so'z ustalarining diqqatini o'ziga tortgan. Natijada tarixda olamning ajoyib "Yetti xazinasini" (Sem chudes sveta), "Dunyoning sakkizinchi xazinasini" (Vosmoe chudo sveta) singari tushuncha-atamalar paydo bo'lgan. Mana shu nuqtaiy nazaridan xalqimizning qadimgi va o'rta asrlarga tegishli meroslari orasidan alohida yetti arxeologik yodgorlik xususida so'z yuritilishi to'g'risidagi kitobchani tavsiya qilmoqchimiz. Bundan maqsad yodgorliklar to'g'risida mutaxassis olimlar o'rtasidagi ayrim ma'lumotlarga kengroq to'xtalish va shu orqali ota-bobolarimizning tabarruk qo'llari bilan yaratilgan madaniy meroslarimizning durdonalari bilan kitobxonlar va talabalarga yaqindan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **"Talabalarni arxitektura yodgorliklari va milliy madaniy meroslar vositasida tarbiyalashning pedagogik mazmuni, shakl va usullari"** deb nomlangan ikkinchi bobda talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning pedagogik va uslubiy jihatlari hamda madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modelining asosiy tarkibiy qismlari va o'zaro bog'liqligini tahlil qilingan.

Talabalarni milliy meroslar vositasida tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan ko'p ilmiy izlanishlarda aynan milliy meroslar olamiga sayohat qilish orqali ularda milliy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish ishlari o'z yechimini to'la topmagan. Uni yaxlit pedagogik jarayonda shakllantirish zarurati bir qator sabab va asoslarga tayanadi.

Mustaqillik yillarida boy tarixiy va madaniy meroslarimizga ma'naviy madaniyatimizga bo'lgan e'tibor butunlay o'zgarib asosiy egasi bo'lgan xalqqa qaytarib berildi. Natijada xalqimizning boy madaniy meroslari bugungi kunda o'z tarixini chuqurroq o'rganishga, o'zligini va milliyligini anglashga xizmat qilib kelmoqda.

Madaniy meroslar xalqning rivojlanish yo'lida aniq bosqichlarining yuzi bo'lishi bilan birga kelajak avlodning ma'naviy tomondan o'sishiga o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatadi. O'zi tug'ilib o'sgan yerni qadrlay biladigan yoshlarni tarbiyalashda madaniy meroslarning ahamiyati juda ham katta. Qo'yqirilgan qal'a

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi mavzoley xram va observatoriya Tuproq qal'ada Gresiya va Rim saroylari va ularning bezaklaridan qolishmaydigan saroylar haykallar, freskalari bilan bezalgan. Buyuk Xitoy devoridan yuz yilga yaqin qurilgan Daukesken to'g'onida ertaklardagi yer osti saroylariga o'xshaydigan Mazlumxon suluda bo'lgan va ularning tarixi bilan yaqindan tanishgan yoshlarning har birida faxrlanish tuyg'ulari uyg'onishi, ularni ma'naviy tomondan boyitishi o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga bo'lgan muhabbatini yanada oshishi shubhasiz. Madaniy meroslarga bog'liq ajoyib obrazlar har bir insonda «Vatan» degan tuyg'uning bir qismiga aylanadi. Unga tarixdagi Gresiyaning nishoni sifatida «Akropol» yodgorligi qabul qilinganligi shuning uchun 1830 yili o'zining mustaqilligini qo'lga kiritishiga bog'liq Akropoldagi Parfenon kolonnalaridan birisining qayta tiklanishi orqali Gresiyaning qayta tiklanishi degan tushunchani qabul qilinishi yorqin misol bo'la oladi. Shunday tushuncha tuyg'ularni davlatimiz misolida ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonning o'z mustaqilligini olishi bilan buyuk sarkarda Amir Temur nomi va unga bog'liq tarixiy meroslar qayta tiklandi. Samarqandni Registon maydonisiz yoki Go'r Amir Bibixonim yodgorligisiz Buxoroni somoniylar mavzoleyisiz Kalyan minorasisiz, Xivani Iychan qal'asiz yoki Mahmud Palvon pir mavzoleyisiz, Kaltaminar, Islom xo'ja minorasisiz xayolimizga keltira olmaymiz. Demak, Qoraqalpog'istonni yuqorida so'z yuritilgan yetti ajoyib xazinasiz ko'z oldimizga keltirib bo'lmaydi. Albatta o'lkamizda ulardan boshqa ham ajoyib madaniy meroslar ko'p. Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 230 dan ortiq madaniy meros obektlari davlat ro'yxatiga olingan. Ulardan 122 ta arxeologik 6 ta arxitektura, 102 ta tarixiy madaniy va monumental yodgorliklar. Shuningdek, ular bilan bir qatorda o'rta asr musulmon dunyosida nomlari mashhur bo'lgan Sulton Uvays bobo (VII asr), Abdulla Narinjoniy, Shibilay ota (X asr), Sulaymon Baqirg'oniy (XII asr) singari islom dinining yirik vakillari, tasavvuf shayxlari bilan zamonasining yetuk shoirlari qabrlarining tuprog'imizda joylashishining o'zi ham biz uchun faxr va iftihor hissini uygotadi. Sababi shu tabarruk joylarga shuningdek, Murot shayx, Imom eshon, Qoraqum eshon, Qushxona, To'qmoq ota, Dovut ota, Azizlar bobo, Oxun bobo, Qo'chqor ota, Qum o'zak eshonlari Qavoqli ota, Shayx Abbaz Valiy ota singari qadamjolar xalqimizning borib ziyorat qilish joyi bo'lishi bilan birga ularning ma'naviy tomondan poklanib tozalanishiga xizmat qiladi. Tarixiy va madaniy meroslarning qurilish materiallari ulardan topilgan topilma buyumlar hattoki yodgorliklarning atamalarida xalqimiz tarixini yanada kengroq va chuqur bilishiga xizmat qiladi. Unga qoraqalpoq xotin-qizlarining bezak buyumlarini milliy naqshlarini yoki xalqimizning urf-odat dasturlarini eslatadigan Tuproq qal'adagi topilmalar bilan uning devorlardagi rangli ko'rinishlar, shuningdek, qal'a qurilishi uchun ishlatilgan har biri hozirgi sakkiz g'ishtga to'g'ri keladigan pishmagan g'ishtlar ham qoraqalpoq urug'larining toamlariga yaqin belgilarning uchrashishi yorqin dalil bo'la oladi. Donolar «oldingdan oqqan suvning qadri yo'q» - deb bejizga aytmasa kerak. Sababi shunday boy madaniy meroslarga ega bo'la turib ularni hali to'liq yaxshi bilmaymiz. Ularning o'rniga o'lkamizdan tashqarida joylashgan ajoyib yodgorliklar to'g'risida baland parvoz aytishga va borib ko'rishga ko'proq odatlanib kelganmiz. To'g'ri jahon madaniyati

xazinasidan joy olgan yurtimizdan tashqaridagi ajoyib madaniy meroslarni bilishga imkoniyat bo'lsa ularni borib ko'rishga nima yetsin. Lekin dastlab o'zimizning boy madaniy meroslarimizni yaxshiroq o'rganib olgandan keyin ularni borib ko'rganimiz ancha foydaliroq bo'lishi mumkin. Unda sharq donishmandlarining «Insonning oyog'i o'z tug'ilib o'sgan joyida ildiz bog'lashi kerak, lekin uning nazari dunyoni kuzatsin» degan donolik so'zini rahbarlikka olganimiz to'g'riroq bo'lsa kerak. Hozirgi kunda jahon miqyosida ko'pgina davlatlar o'zlarining tarixiy va madaniy yodgorliklarini qadrlab ulardan har tomonlama foyda ko'rmoqda. Masalan, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Andorra singari kattaligi kichikligi davlatlarning milliy xarajatlarining ellik foizini yoki undan ham ko'proq qismini o'zlarining yurtiga kelgan sayyohlardan olib iqtisodiy foyda ko'rayotgani hech kimga sir emas. Misr davlatining bir yilda sayyohlardan ko'radigan daromati to'rt milliard Amerika dollarini tashkil qiladi ekan.

Shunday ekan Markaziy Osiyodagi madaniy meroslarga eng boy o'lkalarning biri bo'lgan Qoraqalpog'istonda nima uchun ushbu masala hozirgi kungacha yo'lga qo'yilmagan? Demak, bu masala alohida ko'rib chiqilishi va tez orada o'z yechimini topishi kerak. Negaki hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishbilarmon uchun daromad to'plashga katta imkoniyotlar paydo bo'ladi. Birinchidan o'zi tug'ilgan yerining tarixi urf-odati, madaniyati, ma'naviy dunyosi, dasturlari va sanoati bilan dunyoni xabardor qilsa, ikkinchidan iqtisodiy tomondan daromat olinadi hamda sayyohlarning ko'payishi bilan ularga xizmat ko'rsatishning yangidan turlari tashkil qilinib ko'pgina ish joylari paydo bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha 1972 yili 17 oktyabrdan 21 noyabrigacha Parij shahrida bo'lib o'tgan o'n yettinchi Bosh konferensiyasida dunyo yuzi madaniyat va tabiat meroslarini himoya qilish to'g'risida Konvensiya qabul qilingan edi. Konvensiya asosan 8 bo'lim 38 moddadan turadi. Unda madaniyat va tabiyat meroslarining (1-bo'lim, 1-modda) madaniyat va meroslarining milliy va xalqaro darajada himoya qilish (2 bo'lim, 4-7-modda) dunyo yuzi madaniyat va tabiat meroslarini himoya qilishda davlatlararo qo'mita (3-bo'lim, 8-14-moddalar), dunyo yuzi madaniyat va tabiat meroslarini himoya qilish tashkiloti (4-bo'lim, 15-18-moddalar) tomonidan beriladigan xalqaro yordamning shartlari va turlari (5-bo'lim, 19-26-moddalar), ma'rifiy dasturi (6-o'lim, 27-28-moddalar), bayonotlar (7-bo'lim, 29-modda), yakuniy qoida (8-bo'lim, 30-38-moddalar) nomli sohalaridan iborat. Ushbu Konvensiya qoidalariga muvofiq jahonning 721 madaniyat va tabiyat yodgorliklari global ahamiyatga ega meroslar reytingida YuNESKO hisobida turibdi. Shulardan Amerika kontinentida 138 dan ortiq, Yevropada 300 dan ortiq, Avstraliyada 15 ga yaqin, Afrikada 100 ga yaqin, Arabistonda 30 ga yaqin, Osiyoda 100 dan ortiq yodgorlik ro'yxatga kiritilgan. Shularning ichida Meksikada 23 (Amerika), Ispaniyada 37, Italiyada 36, Fransiyada 27, Rossiyada 7, (Yevropa), Xitoyda 29, Hindistonda 24, Eronda 4, Misrda 6, O'zbekistonda 4, madaniyat va tabiat meroslari bor. Masalan, Xitoy davlatida Buyuk xitoy devori, Pekinda osmon xrami, Lechan tog'idagi Katta budda, Daszu o'zanidagi tosh haykallar singari yodgorliklar kiradi. Shuningdek, bu ro'yxatga Misr piramidalari, Italyaning Venesiya va Florensiya shaharlari, Fransiyadagi Notr Dam cherkovi va Versal saroyi, Hindistondagi Taj Mahal

mavzoleyi, Xivadagi Ichan qal'a (1990), Buxoro (1993) va Shahrisabz (2000) shaharlarining tarixiy markazlari, Samarqand (2001) shahri singari O'zbekiston Respublikasining ajoyib joylari bor. Biz so'z yuritgan Qoraqalpog'istondagi yodgorliklarning har biri barqaror ekanligiga qaramasdan, afsuski hozirgi kunda o'lkamizda bironta yodgorlikning YuNESKO ro'yxatidan o'rin olmaganligini ta'kidlashimiz kerak. Lekin juda ahamiyatga ega bo'lgan ushbu masala o'z yechimini topmoqda. Aniq qilib aytadigan bo'lsak 2014 yili, 24-29 aprel kunlari Xiva shahrida YuNESKO, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi, YuNESKO bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, Xiva shahri hokimligi hamda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining mintaqaviy Ma'mun akademiyasi bilan birgalikda Xiva shahrida seminar o'tkazildi. Unda Markaziy Osiyodagi madaniyat va tabiat meroslarini saqlash va xalqaro turizmni rivojlantirish masalasini yo'lga qo'yish muhokama qilindi. Seminarda Markaziy Osiyodagi pishmagan g'isht va paxsadan qurilgan yodgorliklarga alohida e'tibor qaratildi. Avvaldan tuzilgan dasturga muvofiq YuNESKO vakillari Xiva shahrining va Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim yodgorliklari bilan tanishdi. Seminar yakunida YuNESKO mutaxassislari Xivaning Iychan qal'a qismini ayrim joylarini qayta ta'mirlash bilan bir qatorda Ayaz qal'ada aniqrog'i Ayaz qal'a II yodgorligini saqlab qolish maqsadida uning devorlarini mustahkamlash zarur deb topdi. Buning uchun YuNESKO himoyasiga olinishi tegishli yodgorliklarning ro'yxatini olish ularni yaqin kunlarda yechimini topish to'g'risida kelishib olindi. Uning qatoridan biz so'z etgan va Qoraqalpog'istonning boshqa Yonbosh qal'a, Bozor qal'a, Beleuli, Yopiq qal'a, Qiyot, Kerder, To'k qal'a singari o'nlab yodgorliklarimiz joy oladi degan umiddamiz.

Shunday qilib o'lkamizning tarixiy va madaniy meroslari xalqimizning o'tmishdagi tarixini chuqurroq va kengiroq o'rganishga, kelajak avlodlarni Vatanga bo'lgan muhabbati ruhida tarbiyalashga, shuningdek, bugungi kundan joy olayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqimizning ravnaqi uchun foydalanishga xizmat qilishiga ishonichimiz komil. Mazkur ishda 2011 yili, 28 dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining yettinchi sessiyasida qabul qilingan madaniy meros obektlarini himoya qilish va ulardan samarali foydalanish to'g'risidagi 142/11- sanli Nizom alohida ahamiyatga ega ekanligi so'zsiz. Shuningdek, 1998 yili 28-noyabrdan boshlab hayotga tadbiiq qilingan «Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish to'g'risidagi» Qoraqalpog'iston Respublikasining Nizomi (409/1-sonli) xalqimizning boy madaniy meroslarini saqlashda huquqiy imkoniyatlar yaratadi.

“Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va uni o'tkazish” deb nomlangan uchinchi bobda tajriba-sinov dasturining maqsadi, vazifalari, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ta'riflab berilgan.

Tadqiqot jarayonida talabalarning ma'naviy madaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladigan mezonlarning ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratildi. Talabalar faoliyatini dars jarayoni va darsdan tashqari mashg'ulotlarda bevosita va bilvosita kuzatish, respondent-talabalar ishtirokida suhbat, davra suhbat, debat, bahs-munozara, ma'ruza, konferensiya, amaliy,

